



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Raxmatov

«21» fevral 2026 y.
№ 185

Video reklama roliklarini tayyorlash bo'yicha texnik topshiriqnoma

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar., Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011
3.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Video reklama roliklarni tayyorlash
4.	Moliyalashtirish manbai	Bankning o'z mablag'lari
5.	Xarid predmeti batafsil tarkibi	Xizmatning yakuniy natijalari: bank xizmatlari haqida 3 ta video reklama roliklari. Har bir video roliklar televideniye va ijtimoiy tarmoqlar uchun uchta ko'rinishda tayyorlanishi lozim: 60 soniya, 20 soniya, 10 soniya. Video roliklarga, buyurtmachi talabiga asosan o'zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida tayyorlanadi. Bunda, 3D va 2D elementlar buyurtmachining brend talabiga asosan individual chiziladi va animatsiya ko'rinishida rolikka joylashtiriladi. Video rolikda sur'atga olinadigan akter/aktrisalar buyurtmachi bilan kelishilishi lozim. Video rolik quyidagi tartibda tayyorlanadi: Birinchi bosqich Etkazib beruvchi tomonidan bank xizmati mohiyatini ochib beruvchi va uni bozorda mavjud bo'lgan mazmundan farqlovchi ijodiy g'oyaning 3-ta ko'rinishini ishlab chiqish. G'oya xizmatni televizor va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish uchun kontentni o'z ichiga olishi kerak. Buyurtmachi, taqdim etilgan g'oyalarni takomillashtirish uchun yetkazib beruvchiga qaytarish huquqiga ega. Ikkinchi bosqich Buyurtmachi g'oyalardan birini tanlagandan so'ng,

		buyurtmachi talabiga asosan, o'zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida batafsil skript va matnlar bilan videoning syujet liniyasi tayyorlashi kerak. Video televizor va ijtimoiy tarmoqlar uchun, audio roliklar radiokanallar uchun moslashtirilgan bo'lishi lozim. Buyurtmachi, taqdim etilgan materiallarni takomillashtirish uchun yetkazib beruvchiga qaytarish huquqiga ega. Uchinchi bosqich Reklama rolik ishlab chiqarilgandan so'ng, yetkazib beruvchi barcha tayyor materiallarni ko'rib chiqish uchun buyurtmachiga topshiradi. Agar tayyor materiallar dastlabki tasdiqlangan g'oya, ssenariy va sifat talablariga muvofiq bo'lsa, buyurtmachi materiallarni qabul qiladi, aks holda materiallarni qayta tayyorlash uchun yetkazib beruvchiga qaytaradi. Har bir video rolik quyidagi tarkibdagi texnika, uskuna va xizmatlardan iborat tayyorlanishi lozim: Sur'atga olish texnikasi: 4k sifatidagi professional kino kamera, uning ko'rsatkichlari kamida quyidagicha bo'lishi lozim: 16:9 ProRes HD 2880x1620; 16:9 RAW 2.8K 2880x2160; Dinamika diapazoni: 14; Bayonet: Titanium PL mount with L-Bus and LDS; Kodeklar: ProRes 4444XQ; 422; Kadrlash tezligi: ProRes 3.2K gacha 60fps; ProRes 4K UHD gacha 60fps; RAW 2.8K gacha 30fps; Kino-ob'ektivlar to'plami kamida 4 dona. Yorug'lik uskunolari quyidagicha: Yorug'lik asbobi 300 vatt – rang harorati: 5600K, ± 200K; Yorug'lik asbobi 600w – rang harorati: 2800K-6500K; Yorug'lik asbobi 1200w – rang harorati 5600K; Yorug'lik asbobi 1500w – o'lchamlari:540x280x200 mm; Vazni 5 kg gacha bo'lgan kameraga stabilizatori, 8x8 yorug'lik ramkasi, 12x12 yorug'lik ramkasi. Quyidagi kameraga slayderi: YC Onion HOTDOG Prlx & Pan 120sm MHD120_B. Paralaks va panoram olish imkoniyati. Eng katta gorizontol yuklama 20 kg. Har bir video roliklarni sur'atga olish va tayyorlashda ishtirok etishi lozim bo'lgan mutaxassislar: Tajribali rejissor: 1 kishi; Ikkilamchi rejissor: 1 kishi; Ob'ektiv fokusi bilan ishlash mutaxassisi: 1 kishi; Kamera texniki: 2 kishi; Gaffer: 1 kishi; Dekoratsiya dizayneri: 1 kishi; Sahnalashtiruvchi: 1 kishi; Operator: 1 kishi; Chiroqchi: 4 kishi; Kiyim rassimi: 1 kishi; kasting menejeri: 1 kishi; Aktyorlar: 5 kishidan 15 kishigacha; Katta sahnalar uchun aktyorlar (masovka): 5-10 kishi; Grimchi: 1 kishi; Dekoratsiya mutaxassislari: 2 kishi.
6.	Yetkazib berish shartlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 90 kalendar kun davomida. Xizmatni yetkazib berish shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 kun ichida boshlanishi lozim.

7.	To'lovlarini amalga oshirish shartlari	- shartnoma rasmiylashtirilganidan so'ng 10% oldindan to'lov amalga oshiriladi; - bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotnoma-hisob-faktura buyurtmachi va pudrat tashkiloti tomonidan imzolanganidan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida bajarilgan ishlar va xizmatlar xajmiga qarab to'lovlar bo'lib amalga oshirib boriladi.
8.	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma summasi to'liq foydalangunga qadar.
9.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi.
10.	Baholash mezonlari	(78) 150-93-39 (ichki 572) Mirzajonov X.

kelishuvchilar: B.Raxmatov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=tU99dB82&id=5b6c9e07-03eb-42cc-83dc-5378ebb71b45>